



## YANGI O'ZBEKISTON MUSIQA O'QITUVCHILARINING AXLOQIY-ESTETIK QADRIYATLAR TIZIMIDA SO'Z VA OHANG UYG'UNLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

**Iqboljon Qirg'izov**

*Farg'ona davlat universiteti musiqiy ta'lim va madaniyat kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarining axloqiy – estetik qadriyatlar tizimida so'z va ohang uyg'unligini rivojlantirish omillari hamda yoshlar qalbida Alisher Navoiy musiqiy merosidagi odamiylik fazilatlarini shakllantirish, uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, undan yoshlarni bahramand qilish, kelgusi nasllarga bezavol yetkazish masalalari bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** uzzol, buzruk, bastakor, arg'uvon, g'azal, taxlil, so'z, oxang, uyg'unlik.

## ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ГАРМОНИИ СЛОВА И МЕЛОДИИ В СИСТЕМЕ ЭТИКО-ЭСТЕТИЧЕСКИХ СЕННОСТЕЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ

**Икболжон Киргизов**

*Преподаватель кафедры музыкального образования и культуры Ферганского государственного университета*

**Аннотация.** В статье раскрываются факторы развития гармонии слова и мелодии в нравственно-эстетической системе ценностей будущих учителей музыки, а также вопросы формирования в сердцах молодежи человеческих качеств музыкального наследия Алишера Навои, сохранения его как зенису ока, позволив молодежи наслаждаться ею и передав ее будущим поколениям.

**Ключевые слова:** уззол, бузрук, композитор, аргуван, газел, анализ, слово, мелодия, гармония.

## FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF THE HARMONY OF WORDS AND MELODY IN THE SYSTEM OF ETHICAL-AESTHETIC VALUES OF FUTURE MUSIC TEACHERS

**Iqboljon Kirghizov**

*Teacher of the department of music education and culture of Fargana state university.*

**Annotation.** The article describes the factors for the development of harmony of words and melody in the moral-aesthetic value system of future music teachers, as well as the issues of forming the human qualities of Alisher Navoi's musical heritage in the hearts



*of young people, preserving it as the apple of an ee, allowing young people to enjoy it, and passing it on to future generations. will be done.*

**Key words:** *uzzol, buzruk, composer, arguvan, ghazal, analysis, word, melody, harmony.*

**Kirish.** Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. «Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi», deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi.<sup>61</sup>

Hazrat Navoiyning deyarli barcha asarlari asrlar davomida tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lib, yoshlarni musiqiy tafakkurini shakllatirishga xizmat qilib kelgan. Ayniqsa Navoiy g'azalari bilan kuylanuvchi asarlardan biri "Nasri uzzol"<sup>62</sup> asari o'zining jozibali kuy tuzulishi hamda pur ma'no baytlari bo'lajak musiqa o'qituvchilarining axloqiy – estetik qadriyatlar tizimini takomillashtirishda ulkan tarbiyaviy omil bo'lib xizmat qiladi.

"Nasri uzzol" (rabchadan-ko'mak, zafar. uzzol - pastga sakrash, tushish) asarining daromad qismida kuy harakati an'anaga ko'ra 4-5 pogona quyi tomonga ilkidan sakrash holati ro'y beradi. Musiqa risolalarida uning kvinta diapazonidagi tovush qatorigina keltirilgan. Shashmaqomda Buzruk maqomining birinchi guruh sho'balari orasida "Talqini Uzzol", "Nasri Uzzol" nomli sho'balar va "Ufari Uzzol" qismlari axloqiy-yestetik tizim sifatida nazariy-talimiy saboq beradi.

Yuzungda may guli yo gul ochilg'an bo'stondur bu,

Gulungda qatra xo'y bo'stondag'i sudin nishondur bu

Tajohuli orif qo'llangan baytlarda mahbuba qiyofasi qiyosiy holda tasvirlanadi, bir yoki bir nechalarga o'xshatiladi, lekin uzil-kesil fikr bildirilmaydi». Yuqoridagi bayt mazmuni misolida ham buni ko'rish mumkin. Shoir yor qiyofasini tasvirlar ekan dastlab yuzidagi qizillikka va ter tomchisiga alohida e'tibor qaratadi: «Sening yuzingdagi qizillik may ta'siridanmi yoki yuz emas, gul ochilgan bo'stondir bu; gulingda (chehrangda)gi qatra ter bo'stondagi suvdan nishondur bu!?» Baytning dastlabki misrasida yor yanog'idagi qizillik ikki xil narsaga: may ichgandagi qizarish va bo'stonda ochilgan gulga qiyosan tasvirlansa, ikkinchi misrada yor yuzidagi ter tomchisi bo'ston (gulzor)da jilolanib turgan suvga o'xshatilyapti. Har ikkala tasvir ham o'quvchi diqqatini o'ziga jalb qilib, ko'z oldida manzurning nihoyatda go'zal qiyofasi namoyon bo'lmoqda. Albatta, bu ma'shuqaning zohiriy (tashqi ko'rinishi) tasviridir. Agar bayt mazmuniga so'fiyona talqin nuqtai nazaridan e'tibor qaratadigan bo'lsak,

<sup>61</sup> SHAVKAT MIRZIYOEV MILLIY TARAQQIYOT YO'LIMIZNI QAT'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz « Kamolot » yo shlar ijtimoiy harakatining I V -qurultoyida so'zlangan nutqi. 2017 y 30 iyun 504bet

<sup>62</sup> Buzruk maqomi 1-tom Yunus Rajabiy tahriri ostida. "Toshkent" Badiy adabiy nashiryoti 1966 y. 85-89 b.





uning botiniy (zampiriga singdirilgan) ma'nosi yuzaga chiqadi. Ma'lumki, tasavvufda yuz (jamol) Haq tajalliysi sifatida ham talqin etiladi.<sup>63</sup>

Oshiq yorning betakror go'zalligidan bahramand bo'lar ekan, visol orzusida ko'zidan iztirobga to'la qonli yoshlar oqadi. U yorga murojaat etar ekan o'zining bu holatini shunday izohlaydi:

Ko'zumda qatra qonlar bog'lag'an ermas hamonokim,

Nazar bog'ida shavqingdin ochilg'an arg'uvondur bu

«Mening ko'zimdan tinmay oqayotgan qatra qonlar emas, hamonoki nazar bog'ida – nazarim sening yuzingga tushgandan keyin muhabbating shavqidan ochilgan arg'uvondir bu». Baytda shoir oshiq'larga xos bo'lgan bir holat – suyukli yuziga nazar solishi bilan xijolatdan arg'uvondek duv qizarib ketishining juda chiroyli poetik talqinini bergan. Bu talqin real hayotiy hodisaga ham o'ta uyg'unligi bilan bayt mazmunini yanada teranlashtirgan. G'azalning keyingi baytlarida ham mahbub jamolini ko'rishga muvaffaq bo'lgan oshiqning real holati bilan bog'liq bir qator poetik tasvirlarga duch kelamiz. Ulardan birida shoir yozadi:

Yemas vasling tilab uchqan ko'zum atrofida kirpik

Kim, ul daryoyi qushlarga qamishdin oshyondur bu

Navoiy talqinicha, ko'z – daryo, uning atrofidagi kipriklar – daryo qirg'og'ida o'suvchi qamishlar, shuning uchun ham lirik qahramon suyuklisiga qarata «Sening vasling tilab, ko'zim atrofida uchayotgan (titrayotgan) kipriklar emas, balki ular daryoyi qushlarga (bu daryoga qo'nuvchi qushlarga) qamishdan oshyondir». Oshyon – biror bir jonzot uchun doimiy boshpana. U o'sha yerda yashaydi, ko'payadi. Mazkur baytdagi daryoyi qushlar – yor jamolining jilvalari, daryo – oshiqning intizor ko'zlari, kipriklar – ko'zda namoyon bo'layotgan yor qiyofasi uchun bir oshyon. Demak, lirik qahramon ko'zi – nazarini yordan uzmaslik, ya'ni bu go'zallikdan hamisha bahramand bo'lib turishini istaydi.

Ma'lumki, shaharga biror yangi karvon kirib kelsa, xalqning savdo-sotiq ishlari yanada avj oladi. Shoir hayotda ko'p uchrab turadigan bu real hodisa zamiriga oshiq iztiroblari talqinini singdirib yuborgan:

Ko'nguldin chiqqon ohim aylar afzun xalq savdosin

Ki, shaydoliq diyorida yetishgan korvondur bu

«Ko'nglimdan chiqqan ohim tufayli xalq savdosi yanada ortdiki, bu oh emas, balki shaydolik diyoridan kelgan karvon edi», – deb yozadi Navoiy yuqoridagi baytda. Albatta, bu o'rinda so'zning ko'chma ma'nolaridan ustalik bilan foydalanganlik bayt mazmunini teran poetik talqin bilan ifodalash imkonini bergan. Savdo so'zi aslida forscha «oldi-sotdi, savdo-sotiq, oldi-sotdi bitimi» kabi ma'nolarni anglatadi. Shuningdek, bu so'z yana savdo-sotiq jarayonidagi tortishuv ma'nosini ham anglatadi.<sup>64</sup> Yuqoridagi baytda aynan shu ma'noga ishora qilingan bo'lib, ko'nglimdagi chiqqan ohlar xalqning men haqidagi tortishuvini ko'paytirib yubordi. Bu hayotda

<sup>63</sup> Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. ТАТ. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 726.

<sup>64</sup> . М.Хайруллаев, Д.Шоракмедов "Madaniyat va meros". Toshkent «San'at» nashriyoti, 1973 y.



xalq orasida tez-tez uchrab turadigan tipik hodisa bo'lib, bayt mazmuni, oshiq holati talqinida o'ziga xos hayotiylikni ta'minlagan.

Navbatdagi baytda oshiqning iztirobiy kechinmalari yanada kuchaytiriladi va mubolag'ali tasvirga aylanadi:

Qizil ranglar ko'zumda ko'rgan anglar ashk selinkim,

Oqarg'a kelgan ul yo'llar bila har sari qondur bu

Shoir oshiq holatini ifodalar ekan: «Ko'zimdagi qizil ranglarni ko'rgan kishi undan ko'z yoshlar selini anglaydiki, u yo'llardan har tarafga oqayotgan qondir bu», – deya mubolag'a qiladi. Adabiyotda ko'z yosh inson qalbini dunyo kirlaridan poklovchi vosita sifatida talqin etiladi. Yuqoridagi baytda ham lirik qahramon ko'zlaridan oqayotgan qonli yoshlar uning qalbida muhabbat olovini kuchaytirib, manzurga o'ta sadoqatli ekanini anglatish uchun xizmat qilmoqda.

**Xulosa** sifatida aytish mumkinki, xalq musiqa asarlarining qaysi birini olib qaramang, ular u yoki bu maqom yoki uning sho'ba pardasi, kuy tuzilishi, doira usuliga juda o'xshashligini bilib olish mumkin. Shashmaqom, xalq musiqa merosining asosini tashkil etadi deyishga imkon beradi va bu bo'lajak musiqa o'qituvchilarining axloqiy – estetik qadriyatlar tizimida so'z va ohang uyg'unligini rivojlantirish omillari bo'lib xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. SHAVKAT MIRZIYOYEV MILLIY TARAQQIYOT YO'LIMIZNI QAT'IYAT BILAN DAVOM ETTIRIB, YANGI BOSQICHGA KO'TARAMIZ « Kamolot » yo shlar ijtimoiy harakatining I V -qurultoyida so'zlangan nutqi. 2017 y 30 iyun 504bet.

2. Buzruk maqomi 1-tom Yunus Rajabiy tahriri ostida. "Toshkent" Badiiy adabiy nashriyoti 1966 y. 85-89 b.

3. S.Mirvaliev "Ma'naviyat ufqlari", "Muloqot" jurnali, 1997-yil 6-son.

4. M.Xayrullaev, D.Shoraxmedov "Madaniyat va meros". Toshkent «San'at» nashriyoti, 1973 y.

5. Imyamin Kirgizov, Iqbol Kirgizov, Mavluda Najmetdinova, & Shohida Atabayeva. (2022). THE GENESIS OF THE DEVELOPMENT OF MUSIC CULTURE. *Archive of Conferences*, 57-60.

6. Shokirov T. N. milliy musiqa madaniyati va uning rivojlanish istiqbollari (Folklor, Dostonchilik, Maqom Misolida) //Science And Innovation. – 2022. – t. 1. – №. C3. – s. 31-38

7. Muydinov J. S. XALQ QO 'SHIQLARI-USTOZLAR SAYQALIDA //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 10-2. – S. 606-610.

8. Isakov U. O'ZBEK MUSIQA SAN'ATI VA UNING YOSH LAR MA'NAVIY DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIDA TUTGAN O'RNI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 10-2. – S. 405-411.





9. Namozova, D. T. (2022). RENESSANS-BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINING KOMPETATSION TAKOMILI SIFATIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 491-496.

10. Namozova D.T.//Musiqqa ta'limini o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishda interfaol usullarning ahamiyati.//Cholg'u ijrochiligi masalalari.//Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiali to'plami.// Toshkent 2019 yil. B.53-56.

11. Турсунова Лайло Ергашевна. (2023). МУСИҚА МАДАНИЯТИ ТУШУНЧАСИ МАЗМУН-МОЎХИЯТИ, ТАРКИБИ ВА КОНЦЕПТУАЛ АСОСЛАРИ. THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES, 2(17), 20–23.

12. Турсунова , Л. . (2023). ЁШЛАР МУСИҚА МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ОМИЛЛАРИНИ ҲАЁТГА ТАДБИҚ ЭТИШ. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(5 Part 2), 23–34.

13. Erkindjanovna, Z. G., & Ergashevna, T. L. (2022). BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN "O'ZBEK XALQ CHOLG'U ORKESTR" LARI UCHUN REPERTUARLAR TANLASH MASALASI. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(10), 61-63.

14. Laylo, T. (2022). FUNCTIONS OF MUSICAL CULTURE IN THE FORMATION OF A SPIRITUAL WORLD VIEW. *World Bulletin of Social Sciences*, 6, 72-77.

15. Tursunova, L., & Xoliqova, S. (2022). MAKTABDA MUSIQA FANINI O'QITISHDA YANGICHA YONDASHUV. *Science and innovation*, 1(B8), 782-785.

16. Najmetdinova, M. M. (2023). YOSHLARNING ESTETIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA-AJDODLAR MEROSINING TUTGAN O'RNI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(5), 1185-1191.

17. Нажметдинова, М., & Жўрабоева, Х. (2023). МАҚОМ САНЪАТИ ВА УНИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ДУНЁҚАРАШИГА ТАЪСИРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 813-817.

18. Najmetdinova, M. (2023). YOSHLAR AXLOQIY TARBIYASINI YUKSALTIRISHDA OMMAVIY-MADANIY TADBIRLARNING FALSAFIY TAHLILI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(6), 17–24.